


## I. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 27805,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 108,5 %ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (93,4 %)ni tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish tarkibi**  
*(jami sanoat maxsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan %da)*



### ***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash***


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2021-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 138,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ni tashkil etdi.

### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)**

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25965,6 mldr.so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 93,4 %ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining hajmi 151,7 mldr. so‘mni, (ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 3815,1 mldr. so‘mni, (13,7 %), o‘rta-quyi texnologiyali 6922,3 mldr. so‘mni (24,9 %), va quyi texnologiyali – 15076,5 mldr. so‘mni, (54,3 %) tashkil etdi.


**Yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning  
texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan  
natura ko‘rinishida ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish  
(2021- yil yanvar-dekabr oylari uchun)**

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,8 % (2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 36,6% (2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 113,5 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,3 % (2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,9%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,5% (2020-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 124,0%)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i  
mahsulotlarning o'sish sur'ati  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da**



## **Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2021-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1526,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,5 %ini) tashkil etadi.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 96,5 mlrd so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.

### **Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 174,8 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 %ini) tashkil etdi.

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 26,3 mird. so‘m yoki 31,6 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o‘ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo‘shatish, tozalash va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 39,6 %ga ko‘paygan.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat**

#### **mahsulotlarini ishlab chiqarish**

*(2021-yil yanvar-dekabr oylari uchun)*

	<i>mlrd.so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>
<b>Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi</b>	<b>27805,3</b>	<b>100,0</b>
<b>Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>138,5</b>	<b>0,5</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog‘-kon sanoatining boshqa turlari	138,5	0,5
<b>Qayta ishlash sanoati</b>	<b>25965,6</b>	<b>93,4</b>
<i>undan:</i>		
oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	4230,6	15,2
to‘qimachilik mahsulotlari, kiyim va teri mahsulotlarini ishlab chiqarish	9497,8	34,2

	<i>mldr.so‘m</i>	<i>jamiga nisbatan % da</i>
yog‘och va po‘kak buyumlar, pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari	953,5	3,4
yozilgan materialarni nashr qilish va aks ettirish	5,0	0,02
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	2228,7	8,0
kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	3506,8	12,6
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish	94,0	0,3
boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	3041,6	10,9
metallurgiya sanoati	254,4	0,9
Mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish	1763,6	6,3
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	1526,3	5,5
Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	174,9	0,6

### **Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10 774,6 mldr. so‘mni tashkil etdi va 2020-yilning mos davriga nisbatan 108,8%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 38,7%ni tashkil etdi.

2020-yil  
yanvar-dekabr

41,2%

2021-yil  
yanvar-dekabr

39,5%

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

2020-yil  
yanvar-dekabr

58,8%

2021-yil  
yanvar-dekabr

60,5%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 64,9 mlrd so‘mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib 17,0%ni va Qo‘qon shahrida 15,8%ni tashkil etdi.


### Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida

	<i>Hajmi mlrd. so‘m</i>	<i>Ulushi %</i>	<i>O‘sish sur’ati %</i>
<b>1    <i>Oltiariq t.</i></b>	173,4	1,6	122,9
<b>2    <i>Qo‘shtepa t.</i></b>	313,0	2,9	101,6
<b>3    <i>Bag‘dod t.</i></b>	896,8	8,3	131,8
<b>4    <i>Buvayda t.</i></b>	389,9	3,6	110,2
<b>5    <i>Beshariq t.</i></b>	307,2	2,9	100,5
<b>6    <i>Quva t.</i></b>	293,1	2,7	100,6
<b>7    <i>Uchko‘prik t.</i></b>	1 828,2	17,0	100,6
<b>8    <i>Rishton t.</i></b>	240,1	2,2	104,4
<b>9    <i>So‘x t.</i></b>	77,6	0,7	101,7
<b>10    <i>Toshloq t.</i></b>	671,4	6,2	101,0
<b>11    <i>O‘zbekiston t.</i></b>	273,0	2,5	100,6


<b>12</b>	<i>Farg'ona t.</i>	234,1	2,2	113,1
<b>13</b>	<i>Dang'ara t.</i>	386,5	3,6	100,5
<b>14</b>	<i>Furqat t.</i>	285,9	2,7	132,8
<b>15</b>	<i>Yozyovon t.</i>	157,8	1,5	105,0
<b>16</b>	<i>Farg'ona sh.</i>	1 357,1	12,6	107,8
<b>17</b>	<i>Qo'qon sh.</i>	1 703,7	15,8	115,1
<b>18</b>	<i>Quvasoy sh.</i>	206,2	1,9	139,2
<b>19</b>	<i>Marg'ilon sh.</i>	979,6	9,1	106,3
<b><i>Farg'ona viloyati</i></b>		<b>10774,6</b>	<b>100,0</b>	<b>108,8</b>

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishdagi fizik hajm indeksi (FHI)

(2021- yil yanvar-dekabr oylari uchun %da)




## Hududlarning viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (2021- yil yanvar-dekabr oylari uchun)




### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik subʼektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi mos ravishda oshishiga olib keldi, oʼz navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 43,9 %ni tashkil etmoqda.




**Hududlar bo‘yicha yirik korxonalar va kichik biznesning  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi.  
(2021- yil yanvar-dekabr, % hisobida)**



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg‘ona shahrida (24 251,5 ming so‘m), Qo‘qon shahrida (16 345,2 ming.so‘m) hamda Toshloq tumanida (16 164,9 ming.so‘m) Uchko‘prik tumanida (10 125,8 ming so‘m).

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 373,6 ming so‘m bo‘lgani holda, Qo‘qon shahrida – 5 662,3 ming so‘mni, Uchko‘prik tumanida 6 691,0 – Farg‘ona shahrida 3 460,3 Marg‘ilon shahrida 3 647,5 ming so‘mni, tashkil etdi.


**Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste’mol tovarlari  
ishlab chiqarish hajmi, ming so‘mda  
(2021- yil yanvar-dekabr oylari uchun)**



**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 10390 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ularidan 9983 faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1413 tasi (faoliyat ko‘satayotgan korxonalar umumiy sonining 14,2 %) Qo‘qon shahriga, 1124 tasi (11,3%) Farg‘ona shahriga, 1023 tasi (10,3 %) Marg‘ilon shahriga, 673 tasi (6,7%) Uchko‘prik tumaniga, 583 tasi (5,8 %) O‘zbekiston tumaniga, 582 tasi (5,8 %) Buvayda tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.

**Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan hamda yil boshidan yangi tashkil etilgan korxonalar**  
*(2022- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra soni birlikda)*



Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur’atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 135 ta loyiha bo‘yicha 1511,2 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 11,3 mln. AQSH dollarini miqdorida eksport qilindi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 1287 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi o‘tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o‘rinlari soni 275,0 %ga oshgan. Shu bilan birga, 2020-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o‘sganligi kuzatildi.

№	Hudud nomi	Loyiha miqdori		Korxona soni		Ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)	Export hajmi (mln. AQSh doll.)	Yangi yaratilgan ish o‘rni
		kutilish	amalda	kutilish	amalda			
	<b>Viloyat jami:</b>	135	132	106	103	1 511,2	1 400,2	11,3
<i>shaharlar:</i>								
1	Farg‘ona	34	33	21	20	278,6	196,1	7,2
2	Qo‘qon	9	9	9	9	230,2	230,1	0,2
3	Quvasoy	5	5	5	5	321,8	336,6	2,9
4	Marg‘ilon	11	11	11	11	73,6	64,9	0,1
<i>tumanlar:</i>								
5	Oltiariq	1	1	1	1	0,1	0,1	-
6	Qo‘shtepa	6	6	6	6	4,2	2,4	0,1
7	Bag‘dod	4	4	4	4	6,0	5,0	-
8	Buvayda	5	5	5	5	19,9	19,9	-
9	Beshariq	3	3	3	3	11,6	10,2	-
10	Quva	16	16	1	1	0,6	0,6	-
11	Uchko‘prik	18	16	18	16	486,0	464,4	0,6
12	Rishton	2	2	2	2	1,7	1,7	-
13	So‘x							
14	Toshloq	2	2	2	2	3,1	1,2	-
15	O‘zbekiston	4	4	4	4	2,8	1,3	-
16	Farg‘ona	4	4	4	4	26,6	28,1	0,2
17	Dang‘ara	8	8	7	7	33,1	33,6	-
18	Furqat	1	1	1	1	0,4	-	-
19	Yozyovon	2	2	2	2	10,9	4,0	-